OYBEKNING “NAVOIY” ROMANIDAGI AYOLLAR OBRAZIGA XOS XARAKTER VA RUHIYAT

Davronova Muxlisa Adxamjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Sabirdinov Akbarali Gofurovich,
Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi professori
Email: muxlisamiss@gmail.com
UDK 821.512.133-31.09

Annotatsiya
Ushbu maqolada Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning tarixiy “Navoiy” romanidagi ayollarga munosabat, ularning jamiyatdagi o‘rni, tarixiy voqealar rivojiga qo‘shgan hissasi, xotin-qizlarning urf-odat va qadriyatlarga, patriarxal sinfga qaramligi, ularning ma’naviy, madaniy turmush tarzidagi ahamiyati kabi muammolarga yechim topishga harakat qilingan. Yozuvchining romandagi ayollar obraziga aloqador tasvirlari bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: *obraz, xarakter, ruhiyat, tasvir, badiiyat, badiiy to‘qima, tarixiylik, voqealar rivoji, jamiyat, oila, tarixiy-biografik roman.*

KIRISH

“Navoiy” romani Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek ijodida tarixiy haqiqat bilan birga badiiy to‘qimaning uyg‘unlashgan konteksi sifatida alohida ahamiyatga ega. Asarda Navoiyning adolatli jamiyat, yuksak ma’naviyatli millat uchun kurashi, irodali, halol va mehnatkash aholining osoyishta, hotirjam hamda tinch yashashi uchun chekkan zahmatlari, shu bilan birga xalqning ma’lum darajada ijtimoiy-milliy ko‘tarilishi, hukmron sinfiy tabaqalarning zulmidan, nobob tartiblardan noroziligi, o‘z ahvolini anglash, ezgulikka talpinish yo‘lidagi intilishlari ham o‘z aksini topadi. Demak, yozuvchi tarixdagi ijtimoiy hayotning keng manzarasini, unda mavjud bo‘shliqlarni, aholining “yuqori” va “quyi” qatlam vakillari ahvolini zo‘r mahorat bilan tasvirlaydi. “Navoiy” romanida muhim tarixiy faktlar va hodisalar tashqi fon bo‘lib qolmay, badiiy to‘qimaning asosini tashkil etdi… Oybek “Navoiy” romanida tarixiy haqiqatning asosiy momentlarini to‘g‘ri yoritgan”, deydi Homil Yoqubob “Oybek” nomli kitobida [2, B. 18].

Oybekning “Navoiy” romani tarixiy-biografik roman sifatida nafaqat Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini yoritadi, balki XV asr ijtimoiy muhitini, insonlararo munosabatlar hamda ayollar jamiyatidagi muammolar, ularning tutgan o‘rni va mavqeyini ham badiiy bo‘yoqlarda aks ettiradi. Asarda ayollar obrazlari voqealar rivojining o‘sish sur’atiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi, qahramonlarning ma’naviy dunyoqarashining boyishida hissador qahramon sifatida gavdalanadi.

Yozuvchi ayol qahramonlarni tasvirlashda ularning tashqi qiyofasidan ko‘ra ichki dunyosiga, ruhiy kechinmalariga va ma’naviy fazilatlariga, xarakter xususiyatlariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Asarda ayollar obrazi u darajada ko‘p emas. Asosan Husayn Boyqaro haramidagi va unga aloqador ayollar obrazlari keltiriladi. Romanda shohning

sevimli kanizagi Xadichabegim, Muzaffar Mirzoga dabdabali to‘y-tomosha bilan nikohlangan Xonzodabegim, shahzoda Mirzo Yodgorning ammasi Poyanda Sultonbegim, Abusaid Mirzoning xotinlaridan biri Ruqiyabegim, To‘g‘onbek tomonidan o‘g‘irlangan, Majididdin ismli amaldor tomonidan yuqori lavozimga ko‘tarilish maqsadida shohga in’om etilgan oddiy qishloq qizi Dildor, Xadichabegimning xizmatkor kanizaklari – Davlatbaxt, turkman go‘zallari Asalxon, Gulsanam va Xumor, eron go‘zali Zulfizar, shohga go‘zal qizlarni topib beradigan haramning ish yurituvchisi Gulchehrabegim, Arslonqulning ammasi va unga qoshni bo‘lgan bo‘zchining qizlari kabi ayollar haqida tasvirlar keltirilgan.

Yozuvchi malika va kanizaklarni asosan tarixiy voqealarda, muhim davlat ishlarida, minglab fitna va kurashlar ichida tasvirlaydi. Har birining maqsadi obro‘-e’tibor topish, taxt g‘avg‘osi, hukumat tepasiga kelishdan iborat. Bu orqali Oybek tarixda ham ayollar siyosat, ichki kurashlarda hamisha faol bo‘lganini isbotlashga harakat qiladi. Bu esa bugungi jamiyatda ayollarning har jabhadagi faolliklari endi paydo bo‘lmaganini, tarixda ham xotin-qizlar o‘z o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Yozuvchi shaxzodalarda toj kiyishga bo‘lgan intilishning paydo bo‘lishi, aka-ukalarning bir-biriga bo‘lgan adovati, taxt uchun kurashlarning avj olishida Poyanda Sultonbegim, Xadichabegim kabi yuqori mavqega ega ayollarning ulkan hissasi borligini ko‘rsatadi.

Oybekning ushbu romanida Xadichabegim va Poyanda Sultonbegim obrazlari saroy muhitidagi murakkab siyosiy munosabatlarni ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Bu obrazlar orqali yozuvchi temuriylar davrida taxt uchun kurashlar faqat erkaklar faoliyati bilan cheklanib qolmaganini, balki saroy ayollari ham siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchilariga aylanganligini ko‘rsatadi.

Xadichabegim xarakterida hokimiyatga intilish, siyosiy manfaatlarni insoniylik kabi tuyg‘ulardan ustun qo‘yish, keskin raqobat va raqiblarga nisbatan makr-hiyla kabi jihatlar ustunlik qiladi. U saroydagi kuchlar muvozanatini o‘z foydasiga hal qilishga urinadi. Shohning muhabbati va e’tiboridan foydalanib suyukli nabira bo‘lmish jasur shaxzoda Mo‘min Mirzoning joniga suyqasd uyushtiradi va uning o‘lim hukmiga Husayn Boyqaroning mastligidan foydalanib muhr bostiradi. Bu mudhish qarordan so‘ng Husayn Boyqaro va valiahd shaxzoda Badiuzzamon Mirzo o‘rtasidagi keskinlik yana ham kuchayadi. Alisher Navoiy bu voqeadan so‘ng shunday so‘zlarni keltirgani ham bejiz emas: “Ayollar ham o‘z mavqelarini bilmoqlari, o‘z hadlaridan oshmasliklari kerak. Ayol makrining bir uchquni siyosatda zo‘r yong‘inlar yaratishi mumkin!” [1, B. 394]. Bu ishlardan shoh qattiq g‘amga botsa-da Xadichabegimni jazolash u yoqda tursin, hatto uning ismini ham tilga olmaydi. Chunki hukmdor ayolini jazolash orqali o‘z ojizligini tan olgan, omma oldida hurmatiga putur yetkazgan bo‘lar edi.

Poyanda Sultonbegim obrazi ham saroydagi keskin vaziyatlar bilan bog‘liq holda tasvirlangan. U voqealarning oddiy kuzatuvchisi emas, balki Mirzo Yodgorni boshqaruvchi, hokimiyatni qo‘lga olgan asl hukmdor ayol sifatida gavdalanadi. U Hirotdagi xiyonatkor davlat amaldorlari va turkmanlar yordami bilan jiyanini taxtga chiqarishga erishadi. Uning xarakteriga xos sifatlar yozuvchi tominidan qisqacha shunday izohlangan: “Poyanda Sultonbegim davlat ishlarini boshqardi. Bu ayolning o‘z birodarzodasi uchun jon kuydirishi ham, albatta, o‘z shaxsiy e’tibori va obro‘sini

ko‘tarish umidi bilan bog‘liq edi. U chindan-da o‘z g‘oyasiga erishganday bo‘ldi. U oqila va mudabbira (tadbirli, ishbilarmon) ayol sifatida dong chiqardi” [1, B. 77]. Uning xarakterida qat’iyat va manfaatparastlik bilan bir qatorda saroy hayotining murakkab sharoitlari ta’sirida shakllangan ehtiyotkorlik ham mavjud. Lekin qancha ehtiyotkor bo‘lishiga qaramay uning tarafdori bo‘lgan turkman beklariga so‘zini o‘tkaza olmaydi. O‘rtadagi soxta munosabatlar, aysh-ishratga ko‘ngil qo‘ygan hukmdor va mansabparast, ammo qo‘rqoq sotqin amaldorlar tufayli Husayn Boyqaro taxtni hech qancha vaqt o‘tmasdan qaytarib oladi va Mirzo Yodgorni qatl ettiradi.

“Oybek “Navoiy”da olimning tadqiqoti bilan san’atkorning mahoratini sintez qila olgan, buning oqibatida bundan besh yuz yil muqaddam yashab o‘tgan odamlarning unutilmas xarakterlarini yaratdigina emas, XV asr Movaraunnahr tarixining mohiyatini ham ochib berdi, tarixning bugungi kun uchun muhim bo‘lgan sabog‘ini ifodaladi” [3, B. 58], – degan edi Ozod Sharafiddinov. Chindan ham, asarda Navoiy va uning atrofidagi qahramonlar Oybekni nafaqat yozuvchi sifatida, balki tadqiqotchi sifatidagi mahoratini ham ko‘rsatadi. Adib romanda tarixiy shaxslar bilan bir qatorda, to‘qima obrazlarga ham murojaat qiladi. Misol uchun, Arslonqul, Dildor, bo‘zchining qizlari, folbin ayol va boshqalar. Ular orasida Dildor obrazi yozuvchining saroydagi tilla qafas bo‘lmish haram doirasidagi qizlar qismatini aniqroq yoritib berishida muhim ahamiyatga ega.

To‘g‘onbek tomonida o‘g‘irlab ketilgan va keyinchalik shohga tuhfa etilgan qiz taqdirning qilgan marhamati bilan hukmdorning nazaridan chetda qoladi. Uning keying hayoti haramda behad tushkunliklar ichida o‘tadi. Oilasidan ayrilgan, Xadichabegimning nazariga tushib, uning xizmatkorlaridan biriga aylangan Dildor saroydagi ayollarning tashqi tomondan yaltiroq, ammo ichi qish qahratonidek sovuq, tun zulmatidek qorong‘u hayotiga guvoh bo‘ladi. Oybekning Dildor obrazini asarga kiritishdan maqsadi tilla qafasga solingan ayollar qismatini ochib berishdan iborat edi. Dildor saroyda Xadichabegimning eng yaqin xizmatkori Davlatbaxt, Xumor, Asalxon, Gulsanam, Zulfizar kabi o‘zi kabi shohga sovg‘a sifatida kelgan qizlar bilan tanishadi. Ularning vazifasi hukmdorga va Xadichabegimga sadoqat bilan xizmat qilishdan iborat edi. Ammo Dildor saroy ichkarisidagi hayotga ko‘nika olmay qiynaladi. U erkinlikni, sevgilisi Arslonqulni kampir enasi va otasini sog‘inib iztirob chekadi. Yozuvchi Dildorni shunday pok va yuksak ishq sohibasi sifatida tasvirlaydi: “Shunday ayollar bo‘ladiki, ular ishqni e’tiqod kabi muqaddas tutadilar. Bu ayollar ko‘ngilning ezgu orzusi uchun faqir yigitning xarob kulbasini shohona saroylardan ortiq ko‘radilar. Uvada kiyimli sodda cho‘ponni shahzodalarga alishmaydilar. Ular butun borliqlari bilan bir maqsadga intiladilar. Agar maqsad muyassar bo‘lmasa, uning dardini butun umr o‘zlariga hamshira qiladilar. Dildor shundaylardan edi. Bezak, may, musiqiy, fahsh, g‘iybat mavjlari bilan qaynagan hayot uning ko‘nglidagi toza sevgini bo‘g‘magan edi” [1, B. 135].

Dildor obrazi romanda ayolning shaxsiy erki, insoniy qadr-qimmati va muhabbatga sodiqligi masalalarini yorituvchi timsollardan biridir. Uning o‘g‘irlanishi, mansab va mavqe orttirish uchun hukmdorga tuhfa etilishi o‘sha davr ijtimoiy muhitida ayolning mustaqil shaxs emas, balki ma’lum manfaatlar yo‘lida almashiluvchi va taqdim etiluvchi vosita sifatida qaralganini anglatadi. Muallif ushbu voqealar orqali ayolning

ijtimoiy maqomi va uning taqdiri ustidan boshqalarning hukmronligini tanqidiy ruhda ko‘rsatib beradi.

Baddiuzzamon poytaxtga hujum qilgan paytda Dildorning ko‘rsatgan jasorati ko‘pgina erkaklarga saboq bo‘la oladi. U egniga erkaklar kiyimini kiyib, qo‘shnisidan olgan qilichini olib kurash tomon otlanadi. Ushbu xalq orasidan chiqqan jangchilarga Navoiy boshchilik qiladi. Navoiyga bo‘lgan chuqur hurmati va turmush o‘rtog‘iga yordam berish maqsadida jangga otlangan ayol siymosi orqali Oybek jasorat ko‘rsatish faqat erkaklarning emas ayollarning ham qo‘lidan kelishini ifodalaydi. Navoiyning ozodlik, tinchlik uchun kurashish lozimligi haqidagi g‘oyalaridan ruhlangan Dildor qo‘lida qilichi bilan shahar mudofaachilari bilan birga jang qiladi: “Hazrat Navoiy sarkarda bo‘lsalar, erlar emas, ayollar ham jangga tayyor!” [1, B. 213]. Ushbu epizod ayol obrazining an’anaviy chegaralardan chiqishini ifodalovchi muhim badiiy vositalardan biridir. Muallif ushbu detal orqali ayolni faqat himoyaga muhtoj, passiv qahramon sifatida emas, balki o‘z taqdiri uchun mas’uliyatni zimmasiga ola biladigan faol shaxs sifatida gavdalantiradi. Dildorning qo‘liga qilich olishi uning ruhiy jihatdan mustaqilligini, shaxsiy erkinlik uchun kurashga hamisha tayyorligini ko‘rsatadi. Mazkur voqea Dildorning avvalgi holatlari – saroyga keltirilishi, qochishga urinishi kabi holatlar bilan uzviylik bog‘liq bo‘lib, obrazdagi ichki evolyutsiyani ko‘rsatadi. Agar dastlab Dildor boshqalar qarori ta’siridagi qahramon sifatida namoyon bo‘lsa, ushbu epizodda u voqealar rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mustaqil subyektga aylanadi. Bu uning jismoniy kuchini emas, ma’nan yuksalganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oybek. Navoiy.Roman. – Toshkent.:Yoshlar matbuoti, 2023. – B. 424. 394-bet
2. Yoqubov H. Oybek.(Hayoti va ijodi haqida). – T.: O‘zbekiston, 1975. – B. 24. 18-bet
3. Sharafiddinov O. Iste’dod jilolari. Adabiy portretlar. – Toshkent.: G‘ofur G‘ulom, 1976. – B. 232. 58-bet.